



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

TILIMIZDA NOFAOL AT (AXBORORT TEXNALOGIYALARI) TERMINHLARI

Seytaliyeva Nodira¹

Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti

KEYWORDS

AT terminlari, muqobil, o'zbek tili, til, yoshlar, og'zaki nutq.

ABSTRACT

O'zbek tili boy til bo'lishiga qaramasdan hozirgi kunda uning ichki imkoniyatlaridan keng foydalanmaslik tilimizning nufuzi va rivojiga jiddiy ta'sir o'tkazmoqda. Ushbu maqolada shu kabi muammolarni AT terminlari misolida ko'rib o'tamiz.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.1527329](https://doi.org/10.5281/zenodo.1527329)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Til – millat g'ururi, til bor ekan, millat yashaydi. Tilimizga berilgan e'tibor, millatimizga berilgan e'tibor sanaladi. Shuning uchun ham tilimizni boyligini asrashimiz uning ichki imkoniyatlaridan keng foydalangan holda, uni rivojlantirishimiz va nufuzini oshirishga yordamchi bo'lishimiz har bir millat vakilining vazifasi sanaladi. O'zbek tilining imkoniyatlari keng bo'lishiga qaramay bizda hamon rus va chet tillaridagi so'zlardan faol foydalanish saqlanib qolmoqda. Bu muammolarning tub ildizi O'zbekiston Sovet Ittifoqi tarkibiga kirgan davrdan boshlanadi. O'sha paytda ko'p odamlar ishda va mакtabda rus tilida muloqot qilishar edi. Agar ushbu muammoga global nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak, bu muammo nafaqat O'zbekiston uchun, balki boshqa ko'plab mamlakatlar uchun ham umumiy muammo ekanligini tushunishib yetishimiz mumkin. Abdulla Avloniy yozganidek: «Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oyinai hayoti tili va adabiyotidur. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur». Shunday ekan tilizdag'i begona so'zlardan foydalanishni imkon qadar kamaytirishimiz va o'sib kelayotgan yosh avlodga chetdan kirgan so'zlarni iloji boricha muqobilidan foydalanishni o'rgatishimiz kerak.

Ko'chada, maktabda, o'quv dargohida yoki do'stlar davrasida kundalik hayotimizda ishlataladigan AT terminlarining muqobilidan foydalanmaslik hozirga kelib o'zbek tilidagi

¹ Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili mutaxassisligi magistranti

ayrim so'zlarni deyarli surib chiqarmoqda. Shu sababli ko'chada va o'quv dargohlaridagi ayrim yoshlar bilan "Qasyi so'zdan faol foydalanish siz uchun qulay" deb boshlanadigan suhbat o'tkazdik. Bu savollarga ularning jabvoblari quyidagicha bo'ldi:

- "Sizga qaysi so'zdan foydalanish qulay, naushnik yoki qulochin?"
- Naushnik
- Dasturchi yoki programist?
- Programist
- Onlayn yoki tarmoqda
- Onlany
- Skachat yoki yuklab olish
- Skachat
- Zaryadnik yoki quvvatlagich
- Zaryadnik"

Subat jarayonidan olgan javoblarning deyarli 97% shunday bo'ldi. Ayrim suhbatdoshlarimizga nutqida "dasturchi", "faol" so'zlaridan foydalanishlarini aytib o'tishdi va bu so'zlardan foydalanyotgan insonlar atiga 3%ni tashkil etdi. Yuqoridagi holat yuzasidan suhbat olib borilgan insonlarning ko'pchiligi "zaryadnik", "naushnik" va "online" so'zlarining o'zbektilimizda muqobili mavjud ekanini bilishmas ekan. Buning sabalarini quyidagicha izohlashdi.

"Yoshligimizdan shu so'zlarni qo'llab o'rganganmiz"

"Shu so'zlardan foydalanish qulay"

va yana

"Yoshlar shu so'zlardan foydalanishadi, ularning yonida o'zgacha korinmaslik uchun foydalansam kerak. Yana bilmadim" degan javoblarni oldik.

Ko'rinish turibdiki, yoshlar o'rtasidagi ba'zi yanglish qarashlar ham tilimizning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tilimizda begona so'zlardan faol foydalanishning sabablarini yuqoridagi suhbatlar asosida quyidagicha izohlaymiz:

- Yoshlar o'rtasida til milliy g'urur sifatida qaralmasligi;
- Atrofdagi odamlarning nutqidagi begona so'zlarning muqobili og'zaki muloqotda deyarli foydalanimasligi;
- Ona tili va o'zbek tili darslari jarayonida aynan yuqoridagi so'zlarga o'xshash so'zlarning muqobillarini o'rgatilmasligi;
- Yoshlar o'rtasida chet tilidagi so'zdan foydalanmaslik ularni "uquvsiz" dek ko'rsatadigan yanglish qarashlar paydo bo'layotgani.

Bunday holatlarning oldini olish uchun quyidagicha takliflar beramiz:

1. O'zbek tili darslarida "So'z o'yini" formatida: "O'zbekchasini toping", "Bir so'z bilan ayting".
2. Podkastlar va video kontentlarda o'zbekcha sinonimlarni ishlatalish (masalan, TikTok, YouTube'da qisqa videolar).
3. Mashq sifatida "Bugun 5 yangi o'zbekcha so'z ishlatalish" topshirig'i.
4. Bloglar, maqolalar, yangiliklarda atayin o'zbekcha sinonimlarga urg'u berish.

5. Multfilmlar, teatrlar va boshqa madaniy chiqishlarda unutilayotgan so'zlarni jonlanadirish.
6. *Maktab va universitetlarda:* So'z boyligini oshirish uchun maxsus lug'aviy daftar yuritish.
7. Innovatsion texnologiyalar bilan (masalan, "kahoot", "quizlet") o'zbek so'zlarini mashq qilish.
8. O'zbek tilidagi sinonimlar lug'ati yoki antiplagiat ilovalarini ishlab chiqish.
9. Til o'rnatuvchi **mobil ilovalarda** faol ishlatilmagan so'zlar bloklari kiritish.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, XXI asr texnologiya asri sanaladi. Bu davrda zamonaviy texnologiyalarga oid terminlar ham asosan chet tillaridan o'zbek tiliga kirib keladi va terminlarni imkon qadar o'zbecha muqobilini topish va ommaga tatbiq etish dolzarb muammo sanaladi. Terminologiya sohasidagi og'riqli bo'lgan muammolardan biri tarjimaga diqqatli bo'lish tilimizda begona so'zlarni ko'payishiga to'siq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dadaboyev H.– O'zbek terminologiyasi: o'quv qo'llanma / Toshkent, Yoshlar nashriyot uyi, 2020 , -B.136
2. G'afurov I, Mo'minov O, Qambarov N – Tarjima nazariyasi // o'quv qo'llanma / Toshkent, Tafakkur Bo'stoni, 2012 – B.20
3. Felber, Helmut, - Terminology Manual.// Paris: International Information Centre for Terminology (Infoterm), 1984, P.31
4. Sager, Juan - A Practical Course in Terminology Processing. // Amsterdam/Philadelphia: Benjamins, 1990, P.3
5. Marcel Thelen – The interaction between Terminology and Translation or where terminology and translation meet // trans-kom 8 [2], 2015: PP.347-381